

**«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY -TADQIQOT INSTITUTI ILMIY
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI**

Ped.21/30.10.2020.Ped/S.127.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH

«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XUSANOV BAXTIYOR QAXRAMON O‘G‘LI

**OILALARDA O‘SMIR YOSHLARNI IJTIMOY-MA’NAVIY HAYOTGA
TAYYORLASHDA TARG‘IBOT MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT– 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xusanov Baxtiyor Qaxramon o'g'li

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot
mexanizmlarini takomillashtirish.....

Хусанов Бахтиёр Кахрамон угли

Совершенствование механизмов пропаганды в подготовке подростков к
социальной и духовной жизни в семе

Хусанов Бахтиёр Кахрамон ўғли

Improvement of propaganda mechanisms in preparing adolescents for social
and spiritual life in familiyes

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works

**«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY -TADQIQOT INSTITUTI ILMIY
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
Ped.21/30.10.2020.Ped/S.127.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XUSANOV BAXTIYOR QAXRAMON O‘G‘LI

**OILALARDA O‘SMIR YOSHLARNI IJTIMOIIY-MA‘NAVIY HAYOTGA
TAYYORLASHDA TARG‘IBOT MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT– 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida
B2022.1.Phd/Ped3299 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.moiti.uz) va "ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musurmanova Oynisa Musurmanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismoilova Zuhra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva Aziza Shamsutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» __ soat :__ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani tumani, Istiqbol ko'chasi 51-uy. Tel.: (0-371) 267-05-36; faks (71) 267-03-92; E-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com, web-sayt: www.moiti.uz

Dissertatsiya bilan «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (__ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqbol ko'chasi 51-uy. Tel.: (71) 203-01-11 faks: (71) 267-03-92; E-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com; web-sayt: www.moiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ da tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi __ raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, pedagogika
fanlari doktori, professor

S.K.Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, sotsiologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning turli yondashuvlari mavjud bo'lib, bugun yoshlarni tarbiyalash, ularni o'z qadriyatlari asosida barkamol toptirish muhim hisoblanmoqda. Yevropa davlatlarida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish tajribasidan keng foydalanilmoqda. Albaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Makedoniya, Ruminiya, Serbiya, Slovakiya va boshqa davlatlarda ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda¹. Strategiyaning afzal tomonlaridan biri, yoshlarning turli qatlamlari o'rtasidagi muammolar yechimiga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqiladi ma'lum vaqtlar oralig'ida strategiyadagi vazifalarning ijrosi monitoring qilib borilmoqda. Xorij mamlakatlarida ham o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashga oid zamonaviy yo'nalishlarni tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo'lgani kabi yoshlar muammolarini tadqiq qilish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda ilg'or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'smirlarni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, ularning salomatligini mustahkamlash, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishni takomillashtirish va targ'ibot sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari har bir oilada o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalash, salbiy omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, o'z qadriyatlarimizni targ'ib qilish dolzarblashmoqda.

Respublikamizda o'smir yoshlarning jamiyat hayotidagi siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy va madaniy sohalarida qo'llab-quvvatlashga doir keng ko'lamli islohotlar oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarining amaliyotdagi holati shakllantirishda milliy-ma'naviy meros, xususan, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odat, marosim va an'analar, shuningdek, milliy tarbiya o'ziga xos tomonlarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. «Yoshlar masalasidagi oldimizga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli bajarish orqali islohotlar samaradorligi natijasini har bir yoshning hayotida ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Bu bilan yoshlarning davlatimiz tomonidan qilinayotgan g'amxo'rliklarni his qilishiga va faol hayotga kirib borishiga erishamiz»².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-637-son 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati

¹ <https://asianforum.uz/uz/menu/mechanisms-for-implementing-state-youth-policy-in-foreign-countries>

² https://uza.uz/uz/posts/yoshlar-bilan-ishlash-hayot-mamot-masalasi_473811

samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga doir ilmiy izlanishlar O.Musurmonova, M.Inomova, U.Inoyatov, A.Isimova, Z.Ismoilova, S.Yo'ldosheva, U.Mahkamov, M.Mahmudova, A.Munavvarov S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Jamoldinova, M.Quronov, M.Ochilov, S.Ochilov, K.Risqulova, D.Ro'ziyeva, S.Tursunov, Sh.Sharipov, D.Sharipova, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Qurbonov, U.O'tanov, va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari A.Georgiyevskiy, P.Dribinskiy, A.Dubachay, T.Kamenskaya, A.D.Karabasheva, E.Mensh, G.P.Novikova, E.A.Pipko, G.M.Populo, O.A.Plaskina va boshqalar ta'kidlash mumkin.

Xorijiy davlatlar olimlari tomonidan ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimida mehribonlik hodisasi va rahm-shafqat muammolari M.Sheler, A.Adler, A.Kamyu, ye.Fromm, I.V.Gyote larning ilmiy asarlarida, shuningdek, mehr fenomeni masalalari L.Sarolin, I.I.Kurdiye, K.Legge, K.A.Layouslarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Biroq shuni ta'kidlash lozim, yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot mexanizmlarni takomillashtirishning nazariy-amaliy asoslari ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq etilmagan. Mazkur muammoning ilmiy va amaliy dolzarbligini inobatga olib maxsus tadqiq etilmaganligini inobatga olib, «Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusi tadqiqot uchun tanlandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq JHBL-95-sonli «Gender ekspertiza o'tkazishning huquqiy-metodologik asoslari» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2021 – 2022-y.y.)

Tadqiqotning maqsadi oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarini amaliyotga joriy mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot texnologiyalari samaradorligini aniqlash mezonlarini aniqlash;

oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti obektlari sifatida Toshkent shahar, Toshkent viloyati Sirdaryo, Navoiy viloyatlari istiqomat qilayotgan ota-onalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari iborat 285 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, anketa, test so'rovi, suxbat, savol-javob, pedagogik yeksperiment, matematik-statistik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-pedagogik targ'ibot kompaniyalarining shaxsga integrativ, psixologik, pedagogik ta'sir etish mexanizmlari oilalardagi o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda mahalla va oila sotsial institutlarining preventiv siklik mazmuni asosida takomillashtirilgan;

oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish modeli «umr chizig'i», «birdamlik ko'prigi», «xavfsizlik marafoni» texnologiyalarining shaxsdagi optimallikni balanslovchi ijtimoiy muhitda dinamik munosabatlar kesimida qo'llash va ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada reintegratsiyasi qilish yordamida takomillashtirilgan;

shaxsning hududiy, yosh, kasbiy trilogik xususiyatlarini psixokorreksiylash orqali ongning defolt tizimini o'zgarishi natijasida shaxsiy-refleksiv harakatlar tizimini individual personalizatsiya darajasining ortishi aniqlangan;

oilalarda o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda didaktik ta'minot, oilaviy nizolar va shaxsdagi patologik holatlarning oldini oluvchi o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv darajasi, emotsional intellekti va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish holati kabi pedagogik indikatorlarni aniqlash orqali ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oilalarda o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan;

“targ'ibot”, “ijtimoiylashtirish”, «ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot», «o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash» tushunchalari o'zaro bog'liqlikda ilmiy-amaliy takliflar yaratilgan;

oiladagi o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyasini ahamiyati ochib berilgan;

oiladagi o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyasini zarurligi va ilmiy-amaliy samaradorligi sotsiologik asoslangan;

oiladagi o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyasini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda ko'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ular doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, pilotaj va keng qamrovli sotsiometrik so'rov savollarni tuzish qoidalariga to'liq rioya etilganligi, har bir savolni nazorat savoli bilan ta'minlanganligi, xulosa va taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tamonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi umumlashma va xulosalardan oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda Vatanga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash, shuningdek, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish jarayonida tadqiqotda keltirilgan qoidalar, xulosa va tavsiyalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan oilalarda, fuqarolar yig'inlarida, tuman (shahar) «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari amaliyotida, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni o'tkazishda, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy-pedagogik targ'ibot kompaniyalarining shaxsga integrativ, psixologik, pedagogik ta'sir etish mexanizmlari oilalardagi o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda mahalla va oila sotsial institutlarining preventiv siklik mazmuni asosida takomillashtirilganligiga doir taklif va tavsiyalari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yo'nalishida belgilangan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish» 31-bandi «Mamlakatda yoshlar ma'naviy tarbiyasini tizimli tashkil etishga qaratilgan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta'minlash» mavzusidagi targ'ibot ishlariga singdirilgan. (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 30-maydagi ma'lumotnomasi) Natijada oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirishga erishilgan.

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish modeli «umr chizig'i», «birdamlik ko'prigi», «xavfsizlik marafoni» texnologiyalarining shaxsdagi optimallikni balanslovchi ijtimoiy muhitda dinamik

munosabatlar kesimida qo'llash va ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada reintegratsiyasi qilish yordamida takomillashtirilganligiga oid yangiligi Toshkent shahrida tashkil etilgan «Ma'naviyat festivali» doirasida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at kabi soha vakillaridan iborat 500 nafar «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyati a'zolarini jalb etish orqali 3 mlnga yaqin aholini qamrab olinib, 18 ta ijtimoiy loyihani amalga oshirish, ya'ni, «Zukko Bolajon!» nomli fotoalbomi tayyorlash, «Milliy qadriyatlar» haftaligi, «Mening farzandim – O'zbekiston faxri!» shiori ostida respublika anjumani, «Oila – ma'naviyat qo'rg'oni» nomli psixologik suhbatlar, soha mutaxassisleri ishtirokida amaliy mashg'ulotlari, «Uchinchi renessans – ma'rifatli jamiyat sari!» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini mazmuniga singdirilgan. (Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2023 yil 7 iyundagi 01.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan.

Shaxsning hududiy, yosh, kasbiy trilogik xususiyatlarini psixokorreksiylash orqali ongning defolt tizimini o'zgarishi natijasida shaxsiy-refleksiv harakatlar tizimini individual personalizatsiya darajasining ortishi aniqlanganligiga oid taklif va tavsiyalari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 8-martdagi 4-son bayoni bilan tasdiqlangan «Yo'l xaritasi»ning 45-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida «Dunyoviy qadriyatlarni mustahkamlash konsepsiyasi» loyihasi va chora-tadbirlar dasturini hamda Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yana-da sog'lomlashtirish maqsadida «Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi»ni mazmuniga singdirilgan. (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 30-maydagi ma'lumotnomasi). Natijada oilalarda ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot texnologiyalari samaradorligini aniqlash mezonlari kompleks (xududiy, yosh, kasbiy) hususiyatlarni tizimli namoyon ettiruvchi shaxsiy-refleksiv harakatlar tizimini individual personalizatsiya darajasida adaptivlashtirishga erishilgan.

Oilalarda o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda didaktik ta'minot, oilaviy nizolar va shaxsdagi patalogik holatlarning oldini oluvchi o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv darajasi, emotsional intellekti va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish holati kabi pedagogik indikatorlarni aniqlash orqali ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirilishi dalillanganligiga oid takliflari Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi»ning 71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ijtimoiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan. (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 30-maydagi ma'lumotnomasi). Natijada oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga

tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 10 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-metodologik asoslari**» deb nomlanib, unda oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-siyosiy asoslari, oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik omillari, oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarining amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda bu boyliklarni yuzaga chiqarish, XXI asr kishisini kamol toptirishda undan samarali foydalanish tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishini tashkil etishi lozim.

«Ma'naviy meros deganda o'tmishda avlodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, bilimlar, qarashlar, xalq madaniyati, ijodi singari moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunish mumkin. Ma'naviy meros kishilarning bilim va tafakkurini, axloqiy, madaniy, diniy saviyasini kengaytirishga xizmat qiladigan bitmas-tuganmas manbadir».

Har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy merosi bor. Bu meros, bir tomondan, keng xalq ommasi tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalari, qadriyatlar, osori atiqalar bo'lsa, ikkinchi tomondan olimlar, faylasuflar, mutafakkir adiblarning ijodi namunalari, asarlaridan iborat bo'ladi.

Meros keyingi avlodlarga qoldiriladigan bebaho, shuning bilan birgalikda betakror mulkdir. Chunki har qanday ma'naviy mulk keyingi davrga qanday bo'lsa, shundayligicha ko'chmaydi, balki avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi, boyitiladi va H.K. Shuning uchun ma'naviy merosning rivojlanishi tadriijiy shaklda bo'lib, uning asosida vorislik qonuniyati yotadi.

Mazkur tadqiqotimizning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda ko'tarilgan tarixiy-nazariy va huquqiy manbalar orqali oila va mahallalarda ma'naviy muhitni hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha bayon qilingan fikr-mulohazalarni milliy davlatchiligimizni g'oyaviy jihatdan mustahkamlashda yordam beradigan muayyan bir harakat sifatida baholash mumkin. Shu nuqtayi nazaridan oilaviy munosabatlar va inson sha'ni, qadr-qimmatini o'rganish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Dunyoning barcha mamlakatlaridagi singari, O'zbekistonda ham yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalaydigan, milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlaydigan, uni kelgusi avlodlarga yetkazadigan, yurt tinchligi va

osoyishtaligini asraydigan mo'jazzgina bir jamiyat – bu oila hisoblanadi. Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda nasli toza, jismonan sog'lom, bilim va tafakkuri o'tkir, ma'naviyatli, aniq kasbga va mutaxassislikka ega, g'oyaviy sobitqadam farzandlar, ya'ni barkamol avlod modeli yaratildi va uni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Siyosatshunos I.S.Kon "yoshlar" istilohining yanadadetailashgan ta'rifini keltiradi. Uning ta'biri bilan aytganda, yoshlari ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, u – biologik yoshga nisbatan o'xshash umumiy xarakteristika majmui, ijtimoiy mavqe xususiyatlari, psixologiko'ziga xosligi asosida alohida qatlam yoki guruh qilib ajratiladi, yoshlar – insoniyat va jamiyat hayotiy siklining ma'lum bir fazasiga teng keladi. Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblangan. O'zbek oilalarining serildizlik, serfarzandlik xususiyatlari qadim-qadimdan va hozirda ham boshqa millat kishilarida hayrat, hurmat qiziqish uyg'otgan xususiyatdir. Oila muqaddas va buyuk ne'mat hisoblangani uchun ham juda ko'p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro'yi deb qaraladi.

Xitoyda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatining o'smirlarning ruhiy salomatligiga ta'siri (Dongliang Yang, Suxian Xu, Mingna Li) kabi olimlarning ishlarida ko'rish mumkin. Ekologik nuqtayi nazarga ko'ra, o'smirlarning xatti-xarakatlariga turli tizimlardagi jarayonlar ta'sir qiladi.

Gonkongda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash bo'yicha ijobiy dasturlar. va oilaviy hayot sifatini oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan dasturlar ishlab chiqilgan.

Malayziyalik o'smir yoshlar tomonidan aniqlangan muammolarning aksariyati o'ziga xoslik bilan bog'liq. O'smir yoshlar o'z tengdoshlari va ko'p vaqtlarini band qiladigan mashg'ulotlar orqali o'z shaxsiyatini oladilar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida tashkil yetilayotgan «Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari», Oilalardalarda tashkil yetilgan «Ayollar maslahat kengashlari», ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar uchun «Ijtimoiy shartnoma» va «Himoya orderi» kabi samarali ish tizimlarining joriy yetilishi o'z samarasini berishi tabiiydir³.

Yangi ma'naviy makonni va aholining yangi dunyoqarash va tafakkurini shakllantirish borasida «Oila, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatini tizimli tashkil etish, « tuman – viloyat – respublika» prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish»⁴ vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

³ Musurmonova O., Quronov M., Abdujabbarova M. Mahalla–hayot ko'zgusi.–Toshkent:YOSHLAR MEDIAPRINT, 2021.–B.4-5.

⁴ Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O'zbekiston, 2021.–B.281.

Oilalardalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hokimlar – hududiy kengashlar raislari zimmasida ekan, ma'naviy targ'ibot ishlarini har bir oilada tashkil etish yaxshi natija berishini nazarda tutib, ishlarni aniq belgilab olish va jamoatchilik bilan birgalikda olib borish, shuningdek, «Bir ziyoli – bir oilalarga ma'naviy homiy» tamoyili asosida har bir hududdagi professor-o'qituvchilar va taniqli ziyolilar jalb yetilishi muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Biroq afsuski, bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatimizdagi yangilanish sur'atlari, jamiyat hayotida ro'y berayotgan yangilanishlar, jiddiy o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlar jarayonida kuzatilayotgan talablarga javob bermayapti. Buning uchun, ijtimoiy-ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuqori saviyaga olib chiqish, mazmunan boyitish, ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchidan samarali foydalanish lozim.

Bunday imkoniyatlar yangi O'zbekistonda yaratilgan imtiyozlarda, shart-sharoitlarda ekan, bu imkoniyatdan keng foydalanishimiz zarur. Zero, har inson dunyoga kelar ekan, baxtli bo'lishni orzu qiladi va unga intiladi. Baxt – keng qamrovli tushuncha bo'lib, inson hayotining mazmuni hisoblanadi. Insonning baxtli hayot kechirishini har bir daqiqa, har bir soniya olib borilgan to'g'ri hayot tarzi, ya'ni uning sog'lom turmush tarzi belgilashini unutmasligimiz kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarining samarali mexanizmlari»** deb nomlanib, unda Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda interfaol targ'ibot texnologiyalari va ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari Targ'ibot tadbirlarida keys texnologiyasidan foydalanish qoidalari, Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayoni va ularda ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyaning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Bugun davr o'zgardi, ayniqsa, zamonaviy mutaxassisga talablar davlat ta'lim standartlari doirasida kuchaytirildi: mustaqil bilimlarni to'ldiruvchi shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish kabilar shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurgani bois o'qitish holatiga tegishli qator holatlar kelib chiqmoqda, chunonchi, mustaqil ta'lim salohiyati kuchayib, yakka tartibda o'qitishga ehtiyoj sezilyapti, uning metodologik ahamiyati oshmoqda, ijodiy tafakkurni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xo'sh, ta'limda izohli-tasvirli-yondashuv o'qitish texnologik yondashuvga o'z o'rnini bo'shatib berayotgani, ya'ni o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish XXI asrda ustuvorlik kasb etayotgani sababi nimada? Birinchidan, an'naviy o'qitish yozma og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'radi hamda «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi nafaqat talaba-yoshlarning o'quv-bilish faoliyatini boshqaruvchisiga, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolayotganligi xavfli holatdir.

Ikkinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi va yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv obektlariga aylanish o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga yehtiyojni tug'dirmoqda.

Bu jarayonlarni amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biri – oilalarda o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashni targ'ib qilish texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. "Texnologiya" tushunchasi, keng ma'noga ega. U insonning aniq, murakkab jarayonni kema-ket o'zaro bog'liq muolaja va amallar tizimiga taqsimlash orqali kafolatli natijalarga yerishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar, vositalar, yo'nalishlar tushuniladi. Shu bilan birga "texnologiya" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jamoatchilik ongiga mustahkam o'rnashdi hamda ilmiy va amaliy tafakkurning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib qoladi. Uning regulativ ta'siri shundaki, u tadqiqotchi va amaliyotchilarni insoniy faoliyatning barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham undaydi:

jarayonning natijaviyligini asoslashga ro'baro' kelishi;

fan va tajribalarning so'nggi yutuqlaridan talab qilingan natijalarni olishni kafolatlash uchun safarbar qilish;

faoliyatni intensiv, ya'ni yuqori ilmiy asosda qurish (aksincha, kuch vaqt va resurslarni bekorga sarflashga olib keladigan yekstensiv asosda emas);

faoliyatni mumkin bo'lgan tuzatish muolajalari sonini kamaytirish maqsadida bashoratlash va loyihalashga asosiy e'tibor qaratish;

yangi informatsion vositalardan foydalanish, eskirgan amallarni avtomatlashtirish.

Boshqacha qilib aytganda, texnologiyalanuvchanlik inson faoliyatining yetakchi tavsifi bo'lib qoldi, u ta'limiy jarayonlarning samaradorligini, maqbulligini, yuqori ilmiyligini yangi sifat darajasiga ko'tarishni anglatadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur usuli, degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks yettiradi.

Bugungi tezkor zamonda targ'ibot samaradorligini oshirishning yeng maqbul yo'li – tadbirlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Targ'ibot jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyida keys metodi haqida tushuncha berishga harakat qilamiz.

Keys o'qitish metodi (inglizcha sase – to'plam, aniq vaziyat, stadi –targ'ibot) – keysda bayon qilingan va tadbir ishtirokchilarining muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil yetilishiga asoslanadigan *targ'ibot uslubidir*.

Keys usulida tashkil qilingan tadbir – tadbir maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan tadbir natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan, bir

tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo'lgan targ'ibot texnologiyasidir.

Tadbir jarayoni – targ'ibotchining va u o'tkazayotgan tadbir ishtirokchilarining bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

Tadbir jarayonining asosiy komponentlari:

❑ **Tadbir ishtirokchisi** – targ'ibot tadbirlarida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiruvchi.

❑ **Tadbir predmenti** – targ'ibot tadbirlari materialining mazmuni yoki ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat usullari mazmuni.

❑ **Tadbir texnologiyasi** – targ'ibot tadbirlarida masala yuzasidan materialni taqdim etish metodi, texnologiyasi.

❑ **Targ'ibotchi** – targ'ibot tadbirlari materiali va faoliyat usulining o'zlashtirilishini ta'minlovchi.

1-rasm



1-rasm. Targ'ibot turlari.

Targ'ibot maqsadlari – muayyan targ'ibot jarayoni yakunida tadbir ishtirokchisi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi.



2-rasm. Targ'ibot tadbirlarida "insert" metodidan foydalanish bosqichlari.

Insert texnologiyasi – tadbir materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, tadbir ishtirokchilarini kitobxonlikka o'rgatishga, ya'ni kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirishda ta'sir xususiyatga ega bo'lgan texnologiyadir. Metodning afzalligi: tadbir ishtirokchisi matnlardan mustaqil foydalana oladi, olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi, axborotlarni tizimlashtirib, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi va kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligi mustahkamlanadi.

Metodning kamchiligi: metodni qo'llashda ko'p vaqt kerak, har bir ishtirokchi uchun alohida tarqatma material talab yetiladi, ishtirokchilarning o'zlashtirish darajalari har-xilligi sababli kutiladigan natijaga har doim ham yerishilavermaydi.

1-jadval

Tadbir natijadorligining mezonlari

№	Natijadorlik ko'rsatkichlari	Natijadorlik shartlari	Baho
1.	Tadbir mavzusining dolzarbligi	Tadbirning nega, nima uchun aynan shu mavzuda, shu vaqtda, shu qatnashchilar tarkibi bilan o'tkazilishining asoslanganligi	
2.	Mavzu nomi	Sodda, qiziqarli, dolzarb, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga, hududiy xususiyatga mos ma'naviy-mafkuraviy masalalardan biriga bag'ishlangan bo'lishi	
3.	Maqsadning ifodalanishi	Tadbirning maqsadi, qatnashchilar bilib olishi zarur bo'lgan asosiy fikrlarning tezis shaklida aniq yozilganligi. Tezislar – kartina bo'laklari.	
4.	Targ'ibotchining kompetensiyasi	Ko'tarilgan muammoning kelib chiqishi sabablari va tarixini, shuningdek, ijobiy yechimlarini ham ko'rsata olishi lozim. Mavzu yuzasidan mavjud faktlarni tahlil qilishda davriylikka amal qilishi, agar auditoriya tushunmaydigan ilmiy ifoda yo atama ishlatadigan bo'lsa, uni sharhlab, izohlab berishi kerak.	

5.	Tayyorgarlik	Tadbir mavzusi va mundarijasi haqida kamida bir hafta oldin barcha qatnashchilarga e'lon qilinishi; tashkilotchilar bir hafta oldin tayyorgarlik ko'rishgani; zarur audio, vizual, ko'rgazmali vositalar tayyorligi	
6.	Tadbir ssenariysi	Tadbir ssenariysining bir oy oldin tuzilib, mas'ullar bilan kelishilganligi. Ssenariyda so'zga chiquvchilar, savol-javoblar uchun vaqtning aniq taqsimlanganligi	
7.	Tadbirning qiziqarliligi	Qatnashchilarni toliqtirmaslik, ularning diqqatini doimiy jalb qilib, faollashtirib turilishi, tarixiy, milliy, zamonaviy fakt, misollar, infogrammalardan foydalanish	
8.	Auditoriya	Targ'ibotchi va qatnashchilar orasida bevosita muloqot uchun qulay, samimiy muhitning ta'minlanganligi. Qatnashchilarning tadbir mavzu-mundarijasini bilib, tayyorlanib kelishi	
9.	Ko'rgazmali vositalar	Har bir mavzu buyicha yeng kamida uchta ko'rgazmali vositadan foydalanilishi	
10.	Erishilgan natija	3-bandda belgilangan tezlarning savollarga aylantirib so'ralishi. Qatnashchilarning shu tadbirda olgan yangi bilimlarini qachon, qanday vaziyatlarda qo'llashlarini aytib beraolishi; natijaning tinglovchilardan olingan to'g'ri va noto'g'ri javoblar soni nisbatidan kelib chiqib baholanganligi. Faol qatnashchilarning rag'batlantirilishi.	
11.	Tadbirning OAVda yoritilishi	Tabdirning ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, saytlarda yoritilishi.	
12.	Yakuniy samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlar	Tadbir bayonini rasmiylashtirish: maqsad, tezislar, berilgan savollar, olingan javoblar, yutuq va kamchiliklar, xulosa va tavsiyalar yozilishi.	

O'smirlik hayotning yeng muammoli bosqichlaridan biri sifatida tan olingan. O'smirlik – bu ijtimoiy yeksperimentlar, turli xil ijtimoiy talablarni qabul qilish va yangi ijtimoiy rollar, aloqalar va munosabatlar bosqichidir. Muloqot doirasi ota-onadan tengdoshlar doirasiga kengayadi.

O'smirlik davriga xos bo'lgan sezgirlik va zaiflik, hayot tajribasining etishmasligi va shu bilan birga «balog'at hissi», o'zini tasdiqlash istagi – bu yosh toifasini xavf guruhi sifatida belgilaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirishning samaradorligi» deb nomlanib, oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi, oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarining natija va samaradorlik darajasini aniqlash masalalari yoritilgan.

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi ilmiy-pedagogik g'oyalarni amaliyotda sinab ko'rish, oilalarda tatbiq etish samaradorligini aniqlash, ularda ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ilgari surilgan g'oyalar natijadorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida, respondentlarning oilalarda targ'ibot texnologiyalarni joriy etish, xususan o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish borasidagi fikrlari, qarashlari hamda bilim darajasini tahlil etish maqsadida turli hildagi so'rovnomalar va suhbatlar o'tkazildi.

Mazkur jarayonlarda tadqiqot g'oyalari asosida «Targ'ibot orqali oila va maktablarda ijtimoiy-ma'naviy tarbiya sifatini oshirish» moduli ishlab chiqildi. Modul mavzulari 3 ta asosiy blokdan tashkil topgan bo'lib, bunda axborotli-motivatsion, kasbiy-faoliyatli va amaliy yo'nalishlardagi mavzular aks ettirildi

Biz ushbu baholashda tajriba boshida va tajriba oxiridagi olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz (2-jadval).

2.-jadval.

Tajriba avvalidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Respondetlar	Tajriba boshida			
	quyi	o'rta	yaxshi	yuqori
Maktab ma'naviyatchi va targ'ibotchilari	17%	38%	30%	15%
Ota-onalar	20,3%	43%	24,5%	13%
Pedagog-tarbiyachilar	22%	47,2%	19%	12,3%

3-jadval.

Tajriba yakunida o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Respondetlar	Tajriba yakunida			
	quyi	o'rta	yaxshi	yuqori
Maktab ma'naviyatchi va targ'ibotchilari	7%	26%	40%	28%
Ota-onalar	9%	35%	30%	26%
Pedagog-tarbiyachilar	10%	38%	29%	23%

Yakuniy bosqichda olingan natijalar ya'ni yuqoridagi jadvallardagi sonli ma'lumotlar asosida matematik-statistika usullaridan foydalanib, chuqur qiyosiy tahlil qilish ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishining asosiy maqsadi oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligiga ta'sir qiladigan pedagogik sharoitlarning ishonchliligi va yetarliligini yempirik tekshirish. Qo'yilgan maqsadga yerishishda quyidagi pedagogik tajriba mezonlardan foydalanildi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi samaradorligini aniqlash maqsadida oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashni rivojlantirishga qo'yiladigan mezonlar asosida oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashga oid savol javoblar o'tkazilganda oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashni rivojlantirishning pedagogik samaradorligi quydagicha aniqlandi (4-jadval).

4-jadval.

Oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlashda targ‘ibot mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik samaradorligi

№	Tajriba o‘tkazilgan viloyatlar	Nazorat guruhi $M_K=260$			Tajriba guruhi $H_H=260$		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
1.	Andijon	27	35	23	43	33	8
2.	Xorazm	16	21	13	25	20	5
3.	Toshkent	20	27	18	33	26	7
4.	Jizzax	19	24	17	31	23	6
5.	Buxoro	18	10	7	13	10	6
Barcha viloyatlar		82	107	71	132	102	26

Tajriba-sinov natijalari bo‘yicha o‘smir yoshlarning tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 570 nafar o‘smir yoshlar va oila a‘zolari qatnashdi. Shundan, tajriba guruhida 285 nafari, nazorat guruhida 285 nafari ishtirok etdi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin. Biri tajriba guruhidagi o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlashni takomillashtirish darajasiva ikkinchisi nazorat guruhidagi o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlashni takomillashtirish darajalari qaralgan. Darajalar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o‘rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo‘lib, ular bajariladi.

-jadvalga asosan o‘smir yoshlarning tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi X_1 gipoteza va unga zid bo‘lgan X_0 gipoteza tanlandi va quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Oilalarda o‘smir yoshlarning sonini tajriba guruhidagi ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlash darajalari mos ravishda X_{ini} lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa $\bar{Y}_K M_K$ lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variasion qatorlarga ega bo‘lamiz, shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 3 ball bilan, o‘rta ko‘rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko‘rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 145; & 112; & 28; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 285$$

Nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 90; & 117; & 78; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 285$$

Yuqoridagi natijalarga asosanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lumki, $\bar{X} = 2,41$; $\bar{Y} = 2,02$; $\Delta_x = 0,078$; $\Delta_y = 0,092$; $\Gamma_a \text{ TENG}$.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

$$K_{\text{yco}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,41 - 0,078}{2,02 + 0,092} = \frac{2,332}{2,112} = 1,1042 > 1;$$

$$K_{\text{ooo}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,41 - 0,078) - (2,02 - 0,092) = 2,332 - 1,928 = 0,404 > 0;$$

Olingan natijalardan oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish darajasi samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 13,03% ga oshganligini ko'rish mumkin.

O'tkazilgan Statistik tahlillardan tajriba guruhida qo'llanilgan oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirishsamaradorli bo'lib, o'tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni Respublikamiz miqyosida ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi.

XULOSA

1. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

2. Zamonaviy o'smir yoshning o'ziga xos namunali fazilatlar sohibi sifatida ijtimoiy-ma'naviy mezonlar asosida shakllanishi – targ'ibotchilarning faoliyatiga bog'liqligi ekanligi aniqlandi.

3. Oilalarda ijtimoiy-ma'naviy tarbiya tizimida o'smir yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash samaradorligi aniqlik va tezkorlik, muntazamlilik, faollik, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, tarbiya jarayonining izchilligi, xalqimizning milliy tarbiya borasida yerishgan yutuqlariga tayanishni taqozo qiladi.

4. O'smir yoshlarning «Ommaviy madaniyat», ekstremizm va terrorizm, radikalizm haqida yetarlicha bilimga ega emasligi natijasida turli buzg'unchi g'oyalar orqasidan yergashib ketish holatlari kuzatilmoqda. Bunday sharoitda o'smir yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yangi texnologiyalar asosida olib borib, bu masaladagi nazariy qoidalarni amaliyotga joriy etish yo'llarini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-ma'naviy tarbiyaning yuksalishiga xizmat qiladi.

5. O'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot texnologiyalarning modelini ishlab chiqilishi ushbu tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. Ushbu faoliyat modeli o'zida maqsadlilik, mazmunga yo'naltirilganlik, ijtimoiy-ma'naviy, bo'sh vaqtni yo'naltirish, targ'ibotchilik prinsiplarining majmuini namoyon qiladi. Uning mazmuni o'smir-yoshlarda tayanch ijtimoiy-ma'naviy fazilatlarni namoyon etish bo'yicha o'ziga xos

xususiyatlarini ifoda etadi. O'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash bo'yicha quyidagi mavzularida seminar-treninglar, «Ma'rifat ZIYO» yosh targ'ibotchilar faoliyatini tashkil etish va tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish.

6. Jamoat tashkilotlari, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda keng ko'lamli targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish, «Ma'rifat ZIYO» yosh targ'ibotchilar faoliyatini Nizomini belgilash.

7. Oila – mahalla – ta'lim muassasasi «Ma'rifat ZIYO» targ'ibotchilar guruhi a'zolari bilan ishlash bo'yicha qisqa muddatli seminar-treninglar tashkil etish.

8. «Hayot chizig'i», «Ijtimoiy ko'prik», «Xavfsizlik marofoni» texnologiyalari asosida targ'ibot ishlar tizimini tashkil etish, ota-onalar va pedagog-o'qituvchilarining targ'ibot ishlardagi mas'uliyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash uchun har bir o'tkaziladigan targ'ibot tadbirlarini tarbiyaviy maqsadda foydalanish – ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning talablaridan biridir.

9. «Zukko bolajon» – bolalar ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladigan, ijtimoiy xulq motivlarini shakllantiradigan, milliy an'analarga qiziqishni paydo qiladigan mexanizmni amaliyotga joriy yetilishini ta'minlash.

Yuqoridagilardan qelib chiqib quyidagi **takliflarni** beramiz:

1. Milliy qadriyatlarni e'zozlash, Vatanga muhabbat, o'dob-ahloqni targ'ib qilishga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy mavzulardagi SMS xabarlar xizmatini yo'lga qo'yish.

2. O'smir yoshlar uchun animasion videomahsulotlarga qiziqishini hisobga olib, milliy argumentlar aks yettirilgan animasion multfilmlar, komikslar yaratish.

3. Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ijtimoiy tarmoqlarda «**Ziyoli bloggerlar**» harakati faoliyatini yo'lga qo'yish.

4. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning o'dob-axloqi, xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli buzg'unchi materiallarga qarshi faol chiqishlar qilish, ularga doimiy munosabatlar bildirib borish maqsadida «**Dildagi gaplar**» loyihasini amalga oshirish.

5. Zamonaviy targ'ibot yo'nalishlari orqali yoshlar orasida vatanparvarlik, ajdodlarga hurmat umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish bo'yicha «**Iftixor**» loyihasini amalga oshirish.

6. «Ommaviy madaniyat»ning turli ko'rinishlari bo'yicha «**Befarq emasman**» loyihasini amalga oshirish.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
ЛИСТ ОФ ПУБЛИШЕД WORKS

(I bo'lim, I часть, I парт)

1. Xusanov B.K. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi // «Xalq ta'limi» jurnali. – Toshkent, 2023. – № 3. – B.70-73 (13.00.00; № 17).

2. Xusanov B.K. Yoshlarda ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash masalalari // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – № 10. – B. 666-670. (13.00.00; № 30).

3. Xusanov B.K. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotning ahamiyati // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – № 9. – B. 552-556. (13.00.00; № 30).

4. Xusanov B.K. Yoshlarni g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim jurnali. – Toshkent, 2021. – № 01. – B.52-56. (13.00.00; № 9).

5. Xusanov B.K. O'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning pedagogik omillari // Mug'allim ham yzluksiz bilimlendirio' ilimiy metodikaliq jurnali.– Nukus, 2023. -№ 3/2. – B.172-179. (13.00.00; № 20).Хусанов Б.К. Педагогико-психологические факторы обеспечения преемственности духовного воспитания в семе и махаллях // «Школа будущего» научно-методический журнал. 2022. -№4. – Б.224-235. (13.00.00; № 20).

6. Хусанов Б.К. Маънавий-ахлоқий ғояларнинг нодир манбалари //»Илм зиёси кўзларга тўтиё аллома» номли халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. 2018 й. Б.166-170.

7. Хусанов Б.К. Импроvement оф мечанисмс то stimulate тхе препаратсион оф теенагерс фор социал анд спиритуал лифе ин тхе фамилий // Ссиенсе анд инноватион интернатионал ссиентифис жоурнал, 2023. – П.454-457.

8. Xusanov B.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarining metodik ta'minotini takomillashtirish yo'lida // «Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta'lim mazmuni» Toshkent. 2019. B.41-42 bet

9. Хусанов Б.К. Янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессансга муносиб пойдевор яратилмоқда // «Янги Ўзбекистонда ижтимоий-маънавий мухит барқарорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари»мавзусида республика илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро. 2021№ 20. Б.11-14 бетлар

(II bo'lim; II часть; II парт)

10. Xusanov B.K. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy-siyosiy asoslari va metodologiyasi // Ta'lim va innovatsiya jurnali.– Buxoro, 2023. -№ 7. – B.320-324.

11. Хусанов Б.К. Тхе роле оф промотионал течнологиес ин препаринг адолессенц фор сосиал анд спиритуал лифе ин фамилиес // «Еуропеан Жоурнал оф Хуманитиес анд Едусатионал Адвасемент» 2023 №7.223 Б.61-63

12. Хусанов Б.К. «Инновативе девелоппменц анд ресеарч ин едусатион»// Сертифисате оф сонференсе партисипант 23.12.2022